

YURTIMIZDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISH, UNDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.

Ilmiy rahbar: Yuldasheva. F.F

O'zDJTU katta o'qituvchisi

Talaba : Mehrigon

Usmonova

O'zDJTU 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda boshlang'ich sinflarga ingliz tilini o'qitishdagi ayrim kamchiliklar va ularning yechimlari, hukumatimiz tomonidan chet tillarini o'qitishni rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan chora – tadbirlar haqida so'z boradi.

Annotation : This article is about some problems and solutions in teaching English to elementary school students in Uzbekistan, as well as the measures taken by our government to support the teaching of foreign languages.

Анотация: В данной статье рассказывается о некоторых недостатках в обучении английскому языку учащихся начальных классов в Узбекистане и их решениях, а также о мерах, принимаемых нашим правительством для поддержки преподавания иностранных языков.

Kalit so'zlar: C1, aspekt, information texnologiyalar, metod, protsedura.

Key words: C1, aspect, information technology, method, procedure.

Ключевые слова: C1, аспект, информационные технологии, метод, процедура.

Hozirgi globallashuv zamonida chet tillariga bo'lgan talab va ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Shu sababdan bizning mamlakatimizda ham chet tillarini o'qitish va o'rganishga qaratilgan turli xil chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chet tillarini o'qitishda asosiy urg'u ingliz tiliga qaratilgan. 2013- yildan maktablarda o'quvchilarga 1-sinfdan boshlab ingliz tilini o'rgatishning joriy qilinishi bu yo'ldagi dastlabki asosiy qadamlardan bo'ldi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning may oyida Vazirlar Mahkamasi huzurida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligiga asos solingan bo'lib, ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish usullarini tadbir qilish, samarali dastur va qo'llanmalar ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan .

Har bir kishi chet tilini yoshligidan ma'lum bir dastur va nazorat ostida o'rgangani ma'qul. Shu tufayli, maktablarda va maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qituvchilariga ham, o'quvchilariga ham zarur sharoit va qulayliklar yaratilmoqda. Shu bilan birga kadrlar masalasi va ta'lim tizimida bir qator xato va kamchiliklar yo'q emas.

Maktablarimizda ingliz tilidan dars soatlari yetarli emas. Vaholanki, ingliz tilidagi to'rtta aspekt- tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirishni o'rganish uchun o'sha til muhitida ko'proq vaqt o'tkazish talab qilinadi, Tabiiy jihatdan ham yozma, ham og'zaki muloqot vositasi bo'lgan til davomiylikni talab qiladi. Yana bir muammo shundaki, chet tillarini o'qitishda eskirgan va cheklangan manba hamda metodlardan foydalanilayotganidir. Hozirgi informatsion texnologiyalar davrida maktab o'quvchilarining 80- 90 foiz hollarda ushbu darsliklar bilan kifoyalanishlari ularni sezilarli ravishda ortda qoldiradi. Buning ustiga, maktab darsliklarini ko'rar ekansiz, ularning til o'rgatuvchi to'laqonli manba emasligiga guvoh bo'lasiz. 1-sinfligida ingliz tilini o'rganishni boshlagan boladan 4 – sinfligida o'zi haqida ingliz tilida gapirishini so'raganimizda , aksariyat hollarda kutilgan javobni olmaymiz.

Tilni o'rganishda berilgan har bir ma'lumot, mavzular – barchasi bir- biri bilan bog'langan, bolani qiziqtiradigan va uning fikrlash qobiliyatini yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Buning uchun esa , o'sha til o'qituvchisidan kata mahorat talab qilinadi. Agarda, chet tili o'qituvchilari o'z fanlarini boshqa fanlar bilan bog'liqlikda o'tsalar , bu o'quvchilar uchun yanada samarali bo'lardi. Biroq, ayrim hollarda , maktablarda chet tili o'qituvchilarining yetishmasligi yoki o'qituvchilarning o'zida yetarlicha malaka va mahorat yo'qligiga guvoh bo'lamiz.

Umuman olganda, til o'rganish bu katta bosimli yoki ko'p kuch talab qiladigan , eplash qiyin bo'lgan protsedura emas. Negaki, jahon xalqlarining ko'pchiligi kundalik hayotida ikki va undan ortiq tillarda bemalol gaplasha oladi . Hozirgi paytda poliglottlarning soni ham borgan sari ortib bormoqda.

Maktab o'quvchilariga ma'lum bir tilni o'rgatish jarayonida xorij tajribasidan o'tgan turli innovatsion metodlardan, o'yinlardan, interfaol usullar, rasmlar, ko'rgazmalar, o'quvchilarning yoshiga qarab multfilm , kinofilmlardan foydalanish anchagina samarali bo'ladi. Masalan, qo'shiqlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlar yodda qolishi ancha oson bo'ladi. Buning ustiga, qo'shiq kuylash nutq me'yorlaridan to'g'ri foydalanishga sabab bo'ladi. Multfilm yoki kinolar orqali o'rganishda esa o'quvchi ingliz tilidagi so'zlarni tushunmasa-da, qahramonlarning harakati orqali ular foydalanayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa ularning tinglab tushunish mahoratlarini oshiradi. “ Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) metodi ham o'quvchilarga ingliz tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ular notanish so'zlarni aniqlashtiradilar va topishmoq javobini topadilar. Bu turdagi metodlardan foydalanish orqali sinfda o'quvchilar o'rtasida do'stlik muhiti yaratiladi, passiv o'quvchilar ham darsga qatnashadilar.

Yana bir masala borki, maktablarimiz 1-sinfdan ingliz tilini o'qitishga tayyormi? O'quvchilar-chi? Albatta to'laqonli tayyor emas. Avvalo, ta'limning quyi pog'onasi bo'lgan bog'chalarda ingliz tilini o'qitish darajasini oshirish kerak. Bolalarda maktabga borganlaricha chet tiliga ko'nikma shakllantirish zarur. Har

qanday holatda ham o'quvchilarni rag'batlantirish muhim. Ular yangi tilni o'rgana olayotganlarini his qilishsa, darslarni yanada yaxshi o'zlashtirishga intilishadi.

Ammo, yurtimizda chet tillarini rivojlantirishga yo'naltirilgan chora – tadbirlar barchamizni quvontiradi. Masalan, 2024- yildan OTM larga kirish imtihonlarida majburiy fanlar majmuasiga chet tili fani ham kiritiladi. 2022-2023 o'quv yilidan yurtimizdagi 6ta OTMlarda chet tilidan ijodiy imtihonlar bo'lib o'tadi. Ayni paytda, ingliz tilidan C1 darajadagi yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatga ega o'qituvchilarga ularning bazaviy stavkasiga qarab 50 foiz ustama to'lab beriladi. Chet tilidan C1 darajaga ega bo'lgan o'qituvchilar attestatsiya jarayonida malaka sinovi uchun maksimal ball bilan baholanib, xorijiy til moduli bo'yicha sinovdan ozod etiladi. Shuningdek, joriy yilning 1-fevralidan C1 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega rus tili o'qituvchilariga ham 2 yil davomida 50 foizlik ustama to'lanishi belgilandi. Bularning barchasi maktab o'qituvchilari o'z ustlarida ishlashiga, ular orasida sog'lom raqobatning shakllanishiga va maktablarda faqat mutaxassis kadrlar dars berishlariga va shu orqali ta'lim sifatini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish” F. Mo'minova. 4 (4), 66-68.
2. “Ingliz tilini o'qitish metodlari” G.V.Rogova 7(10), 37-43.
3. J. Jalolov. Ingliz tili o'qitish metodikasi, “O'qituvchi” nashriyoti. Toshkent, 5-bet
4. Hoshimova O'. “Ingliz tilini o'qitish metodikasi “ 2003, 23-bet
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tillarini-online-o-qitish-va-o-rganishning-muammolari-va-yechimlari/pdf>.